

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI KENGASH**

---

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI  
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

**TO'RAYEV AZAMAT SHUXRATOVICH**

**TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI BANK MAHSULOTLARIDAN  
FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2025-yil**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
economical sciences**

**To'rayev Azamat Shuxratovich**

Tijorat banklarida raqamli bank mahsulotlaridan foydalanishni  
takomillashtirish..... 3

**Тураев Азамат Шухратович**

Оптимизация использования цифровых банковских продуктов в  
коммерческих банках..... 29

**Turaev Azamat Shukhratovich**

Optimizing the use of digital banking products in commercial banks..... 55

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 60

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI KENGASH**

---

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI  
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

**TO'RAYEV AZAMAT SHUXRATOVICH**

**TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI BANK MAHSULOTLARIDAN  
FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2025-yil**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida**  
**B2024.1.PhD/Iqt3929 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Toshkent International universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tiu.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz)ga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Iminov Odiljon Karimovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xusanov Ulugbek Nishonovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi**  
**huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi**

Dissertatsiya himoyasi Tashkent International University huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.22/29.12.2023.I.175.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "29" 12 soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 7-uy. Tel: (+99895) 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz.

Dissertatsiya bilan Tashkent International Universityning Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (108 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 7-uy. Tel: (+99895) 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "15" 12 kuni tarqatildi.  
(2025-yil "12" 12 dagi 75 raqamli reyestr bayonnomasi).



**N.X. Jumayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori,  
professor

**I.A. Abduraxmonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori,  
dotsent

**D.A. Raxmonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda 2025-yil boshiga kelib 5,64 milliard kishi internetdan faol foydalanmoqda, bu esa global aholi sonining 68,7 foiziga tengdir. Mazkur ko'rsatkich internetdan foydalanish sohasida jadal o'sish jarayonining davom etayotganini va raqamli infratuzilma global iqtisodiyotning barqaror tarkibiy qismiga aylanganini ko'rsatadi<sup>1</sup>. Shuningdek, zamonaviy raqamli bank platformalari yiliga 1,4 trillion AQSh dollaridan ortiq moliyaviy operatsiyalarni amalga. Bu ko'rsatkich raqamli moliya sektori hajmining o'sishini hamda uning xalqaro iqtisodiy tizimdagi o'rnini mustahkamlayotganini ko'rsatadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ushbu platformalar orqali har bir daqiqada o'rtacha 2,7 million AQSh dollari miqdorida tranzaksiyalar amalga oshirilmoqda<sup>2</sup>. Bunday yuqori tranzaksiya tezligi raqamli moliyaviy tizimlarning o'tkazuvchanlik salohiyati va ishonchlilik darajasining yuksakligini ifodalaydi.

So'nggi yillarda jahon moliyaviy tizimida kuzatilayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari bank sektorining faoliyat tamoyillarini tubdan o'zgartirmoqda. Raqamli texnologiyalar nafaqat bank xizmatlarining tezkorligi va qulayligini oshirmoqda, balki ularning samaradorlik darajasi, operatsion xavfsizligi va raqobatbardoshligini belgilovchi strategik omilga aylanmoqda. Ayniqsa, tijorat banklari uchun raqamli texnologiyalarni joriy etish oddiy modernizatsiya emas, balki barqaror rivojlanishning yangi bosqichidir. Bank faoliyatiga sun'iy intellekt, blokcheyn, "big data" tahlili, raqamli identifikatsiya tizimlari kabi innovatsion yechimlarning kiritilishi xizmatlar sifatini oshirish, mijozlarga individual yondashuvni kuchaytirish hamda xarajatlarni optimallashtirish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi banklar o'rtasidagi raqobatni kuchaytirib, fintech kompaniyalari bilan o'zaro integratsiya va differensiallashuv jarayonlarini tezlashtirdi. Natijada, raqamli transformatsiya jarayonlarini chuqur o'rganish, ularning bank tizimi samaradorligiga, rentabelligiga va moliyaviy barqarorligiga ta'sirini tahlil qilish bugungi kunda ilmiy va amaliy jihatdan nihoyatda dolzarb masalaga aylanmoqda.

Mamlakatimizda raqamli texnologiyalarni yanada rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan keng foydalanishni ta'minlash, davlat organlarining faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etish va ulardan foydalanish samaradorligini baholash tizimini joriy etish, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va ularning biznes amaliyotiga ta'siri va yangi raqamli xizmatlar yoki mahsulotlar paydo bo'lishi ta'sirini hisobga olgan holda qonunchilik bazasini takomillashtirish, aholining barcha qatlamlari orasida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish kabi keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda<sup>3</sup>. Mazkur yo'nalishlardagi harakatlar mamlakatda raqamli boshqaruvning samaradorligini oshirish, raqamli texnologiyalarni tahlil qilish va baholashning ilmiy asoslangan

---

<sup>1</sup> Global Internet Index. (2025). *World Digital Connectivity Report 2025*. Digital Intelligence Institute.

<sup>2</sup> Global Digital Finance Report (2025). *World Digital Banking Statistics and Trends*. GDF Institute.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli "«Raqamli O'zbekiston – 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, <https://lex.uz/docs/-5030957>

tizimini shakllantirish, hamda raqamlashtirish jarayonlarini izchil va bir maromda amalga oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu munosabat bilan, raqamli texnologiyalar rivojlanishining holatini va dinamikasini baholash, ularni joriy etish samaradorligi va iqtisodiy ta'sirini aniqlash, xodimlarning raqamli kompetensiya darajasini o'lchash, shuningdek, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy masalalarga aylanmoqda. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalarni samarali joriy etishning blok-sxematik modeli, innovatsion boshqaruv mexanizmlari va raqamli tashabbuslarni baholash indikatorlarini ishlab chiqish ham raqamlashtirish siyosatini ilmiy asosda takomillashtirishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu yo'nalishlardagi tadqiqotlar nafaqat davlat boshqaruvini modernizatsiya qilishga, balki iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida raqamli texnologiyalarni kompleks, barqaror va inkluziv joriy etishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4699-sonli qarori, 2020-yildagi 12-maydagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yildagi 12-maydagi "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-iyundagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatning rivojlanish holatini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 373-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni va boshqa sohaga tegishli boshqa huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «I. Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Raqamli bank texnologiyalarini banklar faoliyatiga joriy etish hamda banklar samaradorligiga ta'sirini ko'plab xorijiy olimlar P. Appiahene, Y. Marfo Missah, U. Najim, Do, Trang Doan, Ha An Thi Pham, Eleftherios I. Thalassinis, Hoang Anh Le., L. Zuo, J. Strauss, L. Zuo, F. I. Bella, M. F. Himmawan, I. Lee, J. Sh. Yong, P. Schueffel, M. T. Mohammad, J. S. Mohsen, A. Charnes, W. Cooper, E. Rhodes, R. D. Banker va boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan<sup>4</sup>.

---

<sup>4</sup> Peter Appiahene , Yaw Marfo Missah, and Ussiph Najim. Evaluation of information technology impact on bank's performance: The Ghanaian experience. International Journal of Engineering Business Management, 2019, Volume 11: 1–10. Do, Trang Doan, Ha An Thi Pham, Eleftherios I. Thalassinis, and Hoang Anh Le. 2022. The Impact of Digital Transformation on Performance: Evidence from Vietnamese Commercial Banks. Journal of Risk and Financial Management 15: 21. <https://doi.org/10.3390/jrfm15010021>. Zuo, L.; Strauss, J.; Zuo, L. The Digitalization Transformation of Commercial Banks and Its Impact on Sustainable Efficiency Improvements through Investment in Science and Technology. Sustainability 2021, 13, 11028. <https://doi.org/10.3390/su131911028> F. I. Bella and M. F. Himmawan. Digitalization and Efficiency: Technology based Service of Indonesia Sharia Commercial Banks,

Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari samaradorligini oshirish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan ko'plab mustaqil davlatlar hamdo'stligi olimlaridan Ye. V. Klovov, A. Denisov, O. V. Pergunova, A. G. Gululyan, A. A. Perevoshikova, S. N. Yashin, I. L. Tukkel, Ye. V. Koshelev, V. V. Nazarova, I. V. Yakovleva, O.V. Vatolina, L.A. Poroshina, Yu.A. Salavatova, A. O. Rada, T. Ya. Danelyan, O.I. Karasev, Ye.I. Mukanina, Ye.P. Kochetkov, A.A. Zabavina, M.G. Gafarov kabilarning izlanishlari diqqatga sazovordir<sup>5</sup>.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining ilmiy tadqiqotlarida tijorat banklari faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy etishning ayrim jihatlari o'rganilgan. Jumladan, A.L.Gulyamova, G.N.Mahmudova, N.X.Jumayev, A.A.Xodjimamedov, Q.N. Xusanov, Sh.Z.Karimova, S.A.Asqarov, Z. Mamadiyarov, J.B.Gaipovlarning ilmiy ishlari shular jumlasidandir<sup>6</sup>.

---

IQTISHADIA 14, 2, 2021, pp.280-300, blob:<https://journal.iainkudus.ac.id/356d7550-336b-45db-b441-307868fa134e> Lee, In, and Yong Jae Shin. 2018. Fintech: Ecosystem, business models, investment decisions, and challenges. *Business Horizons* 61: 35–46. [CrossRef] Schueffel, Patrick. 2017. Taming the Beast: A Scientific Definition of Fintech. *Journal of Innovation Management* 4: 32–54. [CrossRef] Madjid T, Mohammad HK, and Mohsen J-S. Information technology's impact on productivity in conventional power plants. *Int J Bus Performance Manag* 2009; 11(3): 187–202. Charnes A, Cooper W, and Rhodes E. Measuring the efficiency of decision-making units. *Eur J Oper Res* 1978; 2: 429–444., Banker RD, Charnes A, and Cooper W. Some models for estimating technical and scale inefficiencies in data envelopment analysis. *Manage Sci* 1984; 30(9): 1078–1092.

<sup>5</sup> Клоков Е. В., Денисов А. В. Технология проектного обучения // Школа. – 2006. – №2. – с. 29-36. Пергунова, О. В. Оценка экономической эффективности использования информационно-коммуникационных технологий на промышленных предприятиях, Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук, Оренбург-2015, <https://economy-lib.com>; Гулулян, А. Г. Оценка экономической эффективности использования технологий цифровых месторождений при принятии управленческих решений в нефтегазовом производстве, АВТОРЕФЕРАТ диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук, Москва 2017 год. Перевощикова, А. А. Подходы к оценке эффективности цифровизации на предприятиях агропромышленного комплекса, Выпускная квалификационная работа (Магистерская диссертация), Екатеринбург-2022. Оценка эффективности инновационной деятельности: учебник / С. Н. Яшин, И. Л. Туккель, Е. В. Кошелев [и др.]. – Нижний Новгород: Изд-во Нижегородского госуниверситета, 2018. – 409 с. – ISBN 978-5-91326-402-2. Назарова В. В. Стоимостные методы оценки эффективности менеджмента компании / В. В. Назарова, Д. С. Бирюкова // Научный журнал НИУ ИТМО. – 2014. – № 3. – С. 393-414. – URL: <https://elibrary.ru/item.asp?id=22967211> (дата обращения: 17.02.2020). Яковлева И. В. Концепция VBM в управлении современной компанией / И. В. Яковлева, О. В. Долженкова // Молодой ученый. – 2017. – № 46 (180). – С. 107 166-170. – URL: <https://elibrary.ru/item.asp?id=30595165> (дата обращения: 10.09.2021). Рада А. О. Разработка методики оценки эффективности внедрения цифровых технологий в агропромышленном комплексе / А. О. Рада, Е. А. Федулова, П. Д. Косинский // Техника и технология пищевых производств. – 2019. – С. 495-504. – URL: <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=39546943> (дата обращения: 15.09.2021). Т. Я. Данелян. Формальные методы экспертных оценок // Экономика, Статистика и Информатика, № 183, 1, 2015. О.И. Карасев, Е.И. Муканина. Метод экспертных оценок в форсайт-исследованиях // Статистика и экономика, Т. 16. № 4. 2019,

Кочетков Е.П., Забавина А.А., Гафаров М.Г. Цифровая трансформация компаний как инструмент антикризисного управления: эмпирическая оценка влияния на эффективность // Стратегические решения и риск-менеджмент. Т. 12. № 1. С. 68–81. DOI: 10.17747/2618-947X-2021-1-68-81.

<sup>6</sup>Gulyamova A. L. DIGITAL TECHNOLOGIES IN COMMERCIAL BANKS, EPRA International Journal of Socio-Economic and Environmental Outlook (SEEO), Volume: 9 | Issue: 2| February 2022 | SJIF Impact Factor: 7.426 | Journal DOI: 10.36713/epra0314 | Peer-Reviewed Journal Махмудова Г.Н. Анализ и стратегия развития банковской системы Узбекистана в условиях цифровизации экономики // Научно-технические ведомости СПбГПУ. Экономические науки. 2021. Т. 14, № 1. С. 47–57. DOI: 10.18721/JE.14104. Jumayev N.X., Ibragimova A.I. Raqamli iqtisodiyot va moliyaviy texnologiyalar: tijorat banklari uchun imkoniyat va tahdidlar // «Moliya va bank ishi» elektron ilmiy jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2020-yil. Xodjimamedov A.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank innovatsiyalarini rivojlantirish masalalari. iqt. fan. bo'yicha falsafa dok. diss. Avtoreferat – Toshkent, 2025. – 78 b. Mamadiyarov Z.T. Raqamli transformatsiya jarayonida bank xizmatlarini masofadan ko'rsatishning metodologik asoslarini takomillashtirish. iqt. fan. dok. ... diss. Avtoreferat – Toshkent, 2022. – 78 b.; Xusanov Q.N. Tijorat banklarida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish. I.f.f.d. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati – Toshkent, 2023. – 62 b.; Karimova Sh.Z. Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron tijorat vositalaridan foydalanishni takomillashtirish.

Tijorat banklarida joriy etilgan raqamli texnologiyalar samaradorligini baholash va aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar soni kam bo'lib, olimlar va tadqiqotchilar tomonidan asosan raqamli texnologiyalarni tijorat banklari umumiy samaradorligiga qo'shgan xissasi va/yoki ta'sirini aniqlash bilan cheklanilgan. Bu esa o'z navbatida mazkur tadqiqot ishi yo'nalishini belgilashda asos bo'lib xizmat qildi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent axborot-texnologiyalari universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №A-2-59 "Raqamli iqtisodiyot sharoitida O'zbekiston mehnat bozorining adaptiv moslashuvchan transformatsiyasi va ijtimoiy-mehnat munosabatlarini tashkil etish modellari" mavzusidagi (2024 yil) amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Tijorat banklarida raqamli bank mahsulotlarini yaratish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

raqamli bank mahsulotlarining nazariy asoslarini tizimli tahlil qilish, ularning iqtisodiy mohiyati, tarkibiy tuzilmasi va tijorat banklari faoliyatidagi o'rnini aniqlash;

raqamli texnologiyalarni tijorat banklari faoliyatiga integratsiya qilish jarayonlarini o'rganish, xalqaro tajriba va ilg'or bank amaliyotlarini tahlil qilish orqali ularning muvaffaqiyat omillarini aniqlash;

tijorat banklarida raqamli mahsulotlarni ishlab chiqish va joriy etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini tahlil qilish, mavjud muammolar va cheklovlarni aniqlash;

raqamli bank mahsulotlaridan foydalanish samaradorligini baholash uchun mezonlar va ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish, ularni amaliy tahlilga tatbiq etish;

raqamli bank mahsulotlarining tijorat banklari rentabelligi, mijozlar bazasi kengayishi va operatsion xarajatlar qisqarishiga ta'sirini baholash, empirik ma'lumotlar asosida statistik modelashtirishni amalga oshirish;

tijorat banklarida raqamli mahsulotlardan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

raqamli bank mahsulotlarini rivojlantirish va ularning samaradorligini monitoring qilish uchun ilmiy-amaliy model (konseptual yoki iqtisodiy-matematik model) ishlab chiqish va uni tijorat banklari faoliyatida sinovdan o'tkazish.

**Tadqiqotning obyekti.** O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat banklarining va ATB "Agrobank"ning raqamli bank mahsulotlarini yaratish va ulardan foydalanish jarayoni olingan.

**Tadqiqotning predmeti.** O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat banklarining raqamli bank mahsulotlarini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

---

I.f.f.d. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati – Toshkent, 2024. – 57 b.; Asqarov S.A. Raqamli transformatsiya sharoitida chakana bank xizmatlarini takomillashtirish. I.f.f.d. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati – Toshkent, 2024. – 68 b. Gaipov J.B. Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish sharoitida to'lov tizimi faoliyatini takomillashtirish. I.f.f.d. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati – Toshkent, 2024. – 72 b.



**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda ilmiy abstraksiya, tizimli tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish, ekspert baholash, prognozlash va boshqa standart usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

tijorat banklarida bir zumda “telefon raqami→rubl summasi→avtomatik konvertatsiya→Humo/Uzkard” zanjiri asosida Sberbank Online–Agrobank o‘rtasida API lorgan asoslangan transchegaraviy pul o‘tkazmasi (P2P) raqamli bank xizmati integarsiya haqidagi taklifi ishlab chiqilgan;

bank xizmatlarini jozibadorligini oshirish maqsadida yuridik shaxslarga masofadan hisobvaraqlar ochish, boshqa banklardagi hisobvaraqlarni ko‘rish, boshqarish va to‘lovlarni amalga oshirish, kartoteka hisobini yuritish va kuzatib borish taklifi ishlab chiqilgan;

jismoniy shaxslarga ajratilayotgan muddatli to‘lov qarzlarni o‘zlashtirilishini kengaytirish maqsadida dunyoning barcha internet do‘konlarida ushbu muddatli to‘lov limitini Open ilovasidan Agrobankda virtual Viza karta ochish va shu orqali to‘lov qilish imkoniyat yaratish konsepsiyasi ishlab chiqilgan.

jismoniy shaxslarning banklardagi hisobraqamlarni boshqarish va ulardan to‘lovlarni amalga oshirishni soddalashtirish maqsadida “Pully” dasturi ishlab chiqish taklifi asoslab berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

transchegaraviy (P2P) raqamli pul o‘tkazmalari tizimining joriy etilishi asosida pul o‘tkazmalarining o‘rtacha bajarilish vaqti 5-7 daqiqadan 10 soniyagacha qisqarishi komissiya xarajatlari 20-25 foizgacha kamayishi, bankning foizsiz daromadlari (transaksion to‘lovlar va xizmat haqlari) yiliga o‘rtacha 1,3-1,5 baravar oshishi yuzasidan chora-tadbirlari ishlab chiqilgan;

yuridik shaxslar uchun onlayn hisobvaraqlar ochish, boshqa banklardagi hisoblarni kuzatish va to‘lovlarni amalga oshirish imkonini beruvchi platforma ishlab chiqilgan;

Open ilovasi orqali Agrobankda virtual Visa karta ochish va shu karta yordamida Nike, Adidas, Apple kabi global internet do‘konlarda muddatli to‘lov asosida xarid qilish imkoniyati yaratilgan;

turli banklardagi hisoblarni bitta platformada boshqarish, to‘lovlarni amalga oshirish va minimal komissiyalar bilan moliyaviy operatsiyalarni bajarish imkonini beruvchi “Pully” dasturi ishlab chiqilgan;

**Tadqiqot natijalarini ishonchliligi.** Dissertatsiyada O‘zbekiston Respublikasining me‘yoriy-huquqiy hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqtisodiy va ijtimoiy ishlar departamentining ma‘lumotlari va hisobotlari hamda muallifning tadqiqot natijalaridan foydalanildi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, tadqiqot natijalaridan O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot va bank ishi yo‘nalishida fan sifatida ta‘lim beriladigan oliy va o‘rta-maxsus ta‘lim muassasalari hamda mazkur sohada faoliyat yuritayotgan rahbar va xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishda uslubiy jihatdan foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalari hukumatimiz tomonidan sohada olib borilayotgan islohotlar, jumladan, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish, turli tarmoq va sohalarda raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatning rivojlanish holatini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish va O'zbekiston Respublikasi bank tizimida raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirishda qo'llanilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi.** Tijorat banklarining raqamli bank mahsulotlarini yaratish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

tijorat banklarida bir zumda "telefon raqami→rubl summasi→avtomatik konvertatsiya→Humo/Uzkard" zanjiri asosida Sberbank Online–Agrobank o'rtasida API lardan asoslangan transchegaraviy pul o'tkazmasi (P2P) raqamli bank xizmati integarsiyasi haqidagi taklifi "Agrobank" aksiyadorlik tijorat banki tomonidan mazkur faoliyatni joriy qilishda foydalanilgan. ("Agrobank" aksiyadorlik tijorat bankining 2025-yil 27-oktabrdagi 03-12-122 – son ma'lumotnomasi) Ushbu taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida ATB "Agrobank" ning mijozlar sonining sezilarli o'sishiga erishilib, mazkur xizmatdan yil davomida o'rtacha 2,3 million marotabamijozlar foydalangan. Natijada, bank ushbu xizmat hisobidan 2022 yilda 718 milliard so'm, 2023 yilda esa 870 milliard so'm miqdorida foizsiz daromad olgan;

bank xizmatlarini jozibadorligini oshirish maqsadida yuridik shaxslarga masofadan hisobvaraqlar ochish, boshqa banklardagi hisobvaraqlarni ko'rish, boshqarish va to'lovlarni amalga oshirish, kartoteka hisobini yuritish va kuzatib borish haqidagi taklifi "Agrobank" aksiyadorlik tijorat banki tomonidan mazkur faoliyatni joriy qilishda foydalanilgan. ("Agrobank" aksiyadorlik tijorat bankining 2025 yil 27 oktabrdagi 03-12-122 - son ma'lumotnomasi) Natijada, bank tomonidan mijozlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha, mobil ilova orqali 30 mingda ortiq yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatishga imkon yaratilgan;

Jismoniy shaxslarga ajratilayotgan muddatli to'lov qarzlarni o'zlashtirilishini kengaytirish maqsadida dunyoning barcha internet do'konlarida ushbu muddatli to'lov limitini Open ilovasidan Agrobankda virtual Viza karta ochish va shu orqali to'lov qilish imkoniyat yaratish konsepsiyasi ishlab chiqilgan. ("Agrobank" aksiyadorlik tijorat bankining 2025 yil 27 oktabrdagi 03-12-122-son ma'lumotnomasi) Natijada Agrobank ATB tomonidan ajratilgan muddatli to'lov orqali Nike, Adidas va Apple kabi yirik internet do'konlarida ham savdolarni amalga oshirish imkonini bergan;

jismoniy shaxslarning banklardagi hisobraqamlarni boshqarish va ulardan to'lovlarni amalga oshirishni soddalashtirish maqsadida "Pully" dasturi ishlab chiqish taklifi asoslab berilgan. ("Agrobank" aksiyadorlik tijorat bankining 2025 yil 27 oktabrdagi 03-12-122-son ma'lumotnomasi) Natijada bank mijozlari hisobraqamlarni o'zlariga qulay bo'lgan ilovadan kirib boshqarishlari va to'lovlarni amalga oshirishlari hamda komissiya miqdori kam bo'lgani uchun mablag'larini iqtisod qilishlariga erishiladi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarini e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 12 ta ilmiy ishlar, shundan 4 ta OAK e'tirof etgan mahalliy va 2 ta xalqaro jurnallarda ilmiy maqolalar, 4 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma'ruza tezislari chop etilgan.

**Dissertatsiyani tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, uning hajmi 144 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida ilmiy tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tijorat banklarida raqamli bank mahsulotlari va ulardan foydalanish samaradorligini oshirishning ilmiy-nazariy jihatlarini”** deb nomlangan birinchi bobida raqamli bank mahsulotlarining mohiyati, iqtisodiy ahamiyati, tasnifi va rivojlanish bosqichlari, raqamli bank mahsulotlarini shakllantirishda “bank ekotizimi”ning asosiy yo'nalishlari, raqamli bank mahsulotlari samaradorligini baholash mezonlari va tamoyillari mamlakat bank tizimi uchun amaliy ahamiyati o'rganilgan.

Tijorat banklari tomonidan mijozlarga chakana va korporativ bank xizmatlarini tashkil etish va kengaytirishning raqamli biznes modeliga inqilobiy transformasiyalashuv jarayoni 2015-yilda Angliya bank tizimining davlat regulyatori (Open Banking Working Group 8) tomonidan ochiq API standartlaridan foydalanishga o'tish tashabbusi bilan ro'y bergandi. Bu amaliyot tijorat banklarga mijozlar to'g'risidagi ma'lumotlarning maxfiylik talablarini inobatga olgan holda boshqa tashkilotlarning ham bazalaridan foydalanishga imkon berish, bank xizmatlarini takomillashtirish va mijozlarning o'zgaruvchan ehtiyojlari va talablariga monand ravishda xizmat ko'rsatishni tashkil qilish imkonini berdi.<sup>7</sup> Ta'kidlash kerakki, API standartlari qo'llash uchun majburiy talabga aylanishi bilan birga 85 mamlakatning 64 foiz banklari yangi texnologiyalar kelgusi 5-yill ichida bank biznesini tubdan o'zgartirishiga ishonch hosil qildi. Mamlakatimiz bank sohasi mutaxassislarning fikriga (81 foizi) ko'ra ushbu texnologiyalarni qo'llash bank faoliyati uchun muham ahamiyatga ega.

Raqamlashtirish sharoitida raqamli bank mahsulotlarining mohiyati, iqtisodiy ahamiyati hamda bank xizmatlari tizimining holatini baholash va rivojlanish yo'nalishlarini aniqlashga ko'plab ilmiy tadqiqotlar bag'ishlangan.

Masalan, Ioda Yu.V. “... bank tizimining raqamli bank xizmatlariga o'tish

---

<sup>7</sup> Дмитриева Г. С. Цифровые технологии в банковском секторе экономики. Известия Санкт-Петербургского государственного экономического университета. 2020;(1):49–53.

evolyutsiyasini o'rganan va uni bank xizmatlarini raqamli muhitda ko'rsatish orqali biznes yuritishning yangi shakli sifatida tavsiflagan ...”<sup>8</sup>.

## 1-jadval

### “Raqamli bank mahsuloti” ta’rifiga iqtisodchi olimlar ilmiy yondashuvlari<sup>9</sup>

Mualliflar	Mualliflar fikrlari	Izohlar
V.S. Aksenov <sup>10</sup>	Elektron bank-bu telekommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda taqdim etiladigan moliyaviy xizmatlar	Muallif raqamli bank xizmatlarini ko'rsatish usuliga e'tibor qaratgan
A.P Bagaeva <sup>11</sup>	Internet-banking-bu bank omonatchilariga o'z hisobvaraqlari to'g'risidagi ma'lumotlarga kirish va ular bo'yicha operatsiyalarni Internet orqali amalga oshirish imkonini beruvchi masofaviy bank texnologiyasi	Muallif hisob ma'lumotlariga kirish va Internet orqali operatsiyalarni amalga oshirish, ya'ni funktsionallik yoki raqamli operatsiyalar ekanligini ta'kidlaydi
Z.K. Djafarova <sup>12</sup>	Elektron bank-bu naqd pul, chek yoki boshqa turdagi qog'oz hujjatlarni almashtirish orqali emas, balki elektron signallarni almashish orqali pul o'tkazmalarini amalga oshiradigan bank xizmatining shakli	Muallif mablag'larni elektron signallar orqali o'tkazish va qog'oz hujjatlaridan voz kechishga e'tibor qaratadi
V.E. Kosarev <sup>13</sup>	Neobank (yunoncha “yosh bank”) - bu har qanday smartfon va shaxsiy kompyuterlardan onlayn xizmat ko'rsatadigan, haqiqiy filiallarsiz yaratilgan va ishlaydigan modernizatsiya qilingan bank	Muallif neobankni elektron xizmat ko'rsatish kanallari orqali xizmat ko'rsatadigan modernizatsiya qilingan kredit muassasasi deb biladi
M.H.Uddin <sup>14</sup>	Iqtisodiy qo'shimcha qiymat yaratish uchun raqamli texnologiyalar salohiyatini bankning moliyaviy mahsulotlari va xizmatlariga integratsiya qilish strategiyasi	Muallif raqamli banklarning moliyaviy mahsulotlari va xizmatlari iqtisodiy o'sishda qo'shimcha qiymat yaratadi deya ta'kidlaydi
Muallif fikri	Bankning raqamli xizmatlari va mahsulotlari - bu tijorat banklarining hisoblash texnikasi va telekommunikatsiyalar yordamida ko'rsatiladigan xizmatlari va mahsulotlari	Muallif raqamli banklari xizmatlari va mahsulotlari moliyaviy texnologiyalar yordamida amalga oshirilishga e'tibor qaratadi

N.V.Parushina va V.A.Proninaning ta'kidlashicha, “...mijozlarni an'anaviy oflayn xizmatlardan onlayn shaklga tezkor ravishda o'tkazishning asosiy drayveri COVID-19 pandemiyasi bo'lgan ...”<sup>15</sup>. Aynan shu davrda banklar tomonidan taklif

<sup>8</sup> Иода Ю.В. Развитие системы электронного обслуживания в банковской деятельности // Социально-экономические явления и процессы. 2018. Т. 13. № 104. С. 152-163.

<sup>9</sup> Iqtisodiy adabiyotlarni o'rganish orqali muallif timinidan shakllantirildi

<sup>10</sup> Аксенов В.С., Обухов В.В. Электронный банкинг в системе банковских услуг. <https://cyberleninka.ru/article/n/elektronnyy-banking-v-sisteme-bankovskih-uslug.pdf>

<sup>11</sup> Багаева А. П., Моисеенко А. А. Интернет-банкинг // Актуальные проблемы авиации и космонавтики. 2012. <https://cyberleninka.ru/article/n/internet-banking-1>


<sup>12</sup> Джафарова, З. К. Развитие электронных банковских продуктов и услуг в банковской сфере // Финансовые инструменты регулирования социальноэкономического развития регионов: Сборник материалов V Всероссийской (национальной) научно-практической конференции, Махачкала, 2020. – С. 63-69.

<sup>13</sup> Косарев В.Е. О цифровой эволюции банков в направлении необанков // Финансовые рынки и банки. 2020. №3. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-tsifrovoy-evolyutsii-bankov-v-napravleniineobankov>

<sup>14</sup> Uddin, M.H., Mollah, S., & Ali, M.H. Does cyber tech spending matter for bank stability? International Review of Financial Analysis. - 2020. - № 72. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S1057521920302313> .

<sup>15</sup> Парушина Н.В., Пронина В.А. Анализ состояния и направления совершенствования системы дистанционного банковского обслуживания // Научные Записки ОрелГИЭТ. 2021. № 4 (40). С. 35-39.

qilinayotgan raqamli platformalar va servislar misli ko‘rilmagan tezlikda rivojlanib, mijozlarga dunyoning istalgan nuqtasidan 24/7 rejimida bank xizmatlaridan foydalanish imkonini berdi.



**1-rasm. Raqamli bank mahsulotlarini shakllantirish strategiyasining umumiy ko‘rinishi<sup>16</sup>**

Mamlakatimizda bozor munosabatlari rivojlanishi banklarning iqtisodiyotdagi o‘rnini qanchalik muhimligini belgilab bermoqda. Banklar o‘z kreditlari bilan korxona va tashkilotlarni qo‘shimcha resurs bilan taminlabgina qolmay, ularga o‘z jamg‘armalarni ko‘paytirish imkonini beradi, ishlab chiqarishning o‘sishi va jadallashishi uchun zarur iqtisodiy shart-sharoitlar yaratadi. Shuningdek, o‘z mijozlariga ko‘rsatilayotgan xizmatlarni raqamlashtirish orqali yuqorida qayd etilgan jatayonlarni avtomatlashtiradi va mijozlarning vaqtlarni tejash, ularga tez va sifatli hamda raqobatbardosh xizmatlar ko‘rsatadi.

Tadqiqotchi A.L.Gulyamovanning ilmiy tadqiqotlarida tijorat banklarida raqamli texnologiyalarni joriy qilish, yangi bank mahsulotlarini taklif qilishda innovasion faoliyatni tashkil etish hamda moliyaviy texnologiyalarga investisiya kiritib, moliyaviy xizmatlarning innovasion loyihalarini bilan bog‘liq holatlar ko‘rib chiqilgan bo‘lib, ilg‘or xorij tajribasi asosida “...o‘zaro munosabatlar marketingi va mijozlarining ehtiyojlarini anglash asosida tijorat banklari o‘zlarining ekotizimlarini yaratish, bank va mijozlarning turli segmentlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tahlil qilish asosida, standart moliyaviy xizmatlar doirasidan tashqariga chiqib, ekotizim yo‘nalishlarini ishlab chiqish”<sup>17</sup> lozimligi ta’kidlangan.

Umuman olganda, tijorat banklarida raqamli mahsulotlardan foydalanish samaradorligi nafaqat iqtisodiy foyda, balki mijozlar ehtiyojining maksimal darajada

<sup>16</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>17</sup> Гулямова, А.Л. Банк хизматларида рақамли технологиялар ва рақамли экотизим. Молия ва Банк иши Журнали 3 (2022), 91-96.

qondirilishi, xizmat sifati, tezkorlik va xavfsizlik kabi mezonlar orqali ham baholanishi lozimligi asoslab berildi. Raqamli transformatsiya sharoitida banklar oldida turgan yangi yo‘nalishlar - texnologik barqarorlik, raqobatbardoshlik, kiberxavfsizlik, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va raqamli savodxonlikni oshirish kabi muammolar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston tijorat banklarida raqamli bank mahsulotlaridan foydalanish samaradorligini oshirishning hozirgi kundagi holati tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekiston tijorat banklarida raqamli bank mahsulotlarini joriy etilishi va rivojlanish jarayoni, mamlakat tijorat banklari faoliyatida raqamli bank mahsulotlarini joriy etilishi samaradorligi hamda bank tizimini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish amaliyotini tartibga solish yo‘llari ochib berilgan.

Tadqiqotimiz davomida mamlakatimizda 2020-2024-yillarga oid ma’lumotlar asosida axborot va aloqa sohasi hajmi, tijorat banklarining jami aktivlari, tijorat banklarining jami kapitalining O‘zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti (YaIM) ga bo‘lgan nisbiy ta’siri va rivojlanish dinamikasi tahlilini ko‘rib chiqamiz.

Shuningdek, Fintech va bank xizmatlari raqamlashtirilishi raqamli bank mahsulotlari, mobil ilovalar va onlayn to‘lovlar iqtisodiy faollikni kuchaytirishi hamda moliyaviy inklyuzivlikning ta’siri natijasida aholining keng qatlami moliyaviy xizmatlarga ega bo‘lib, ichki bozor kuchayishiga ta’sirini o‘rganib chiqamiz.

Quyidagi 1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra axborot va aloqa tarmog‘i (AKT)ning YaIMdagi ulushi 2020 yildagi 1.49 foizdan 2024 yilda 2.21 foizga oshgan. O‘tgan besh yil davomida ushbu soha qiymati 3.2 barobar o‘sgan. Bu o‘shishga raqamli infratuzilmaning kengayishi: optik tolali internet, mobil aloqa, raqamli xizmatlar. Raqamli moliyaviy texnologiyalar: banking ilovalari, onlayn to‘lovlar, fintech.

## 2-jadval

### Har bir ko‘rsatkichning YaIMdagi ulushi<sup>18</sup>, foizda

Yil	YaIM (mlrd. so‘m)	Axborot va aloqa (mlrd.)	Ulushi (%)	Bank aktivlari (mlrd)	Ulushi (%)	Bank kapitali (mlrd)	Ulushi (%)
2020	668 038,0	9 957,8	1,49	272 726,7	40,83	51 030,7	7,64
2021	820 536,6	12 864,4	1,57	366 015,0	44,61	58 351,3	7,11
2022	995 573,1	16 557,2	1,66	444 922,5	44,69	70 917,6	7,12
2023	1 204 485,4	22 141,8	1,84	556 746,3	46,22	79 565,4	6,61
2024	1 454 573,9	32 211,6	2,21	652 157,1	44,82	97 079,2	6,6

Raqamli bank mahsulotlarining afzalligi - ularning doimiy takomillashib borishi, funksional imkoniyatlarining kengligi va mijozlarga real vaqt rejimida xizmat ko‘rsatish imkoniyatlaridir. Shu bois, tijorat banklarining faol rivojlanishini ta’minlash va mijozlar ehtiyojiga mos yangi moliyaviy mahsulotlar yaratish uchun bank tizimining to‘liq raqamli transformatsiyasi zarur hisoblanadi.

<sup>18</sup> Muallif ishlanmasi

**Mamlaktimizdagi mavjud ayrim banklarning mavjud raqamli bank mahsulotlari va xizmatlari<sup>19</sup>**

Bank nomi	Raqamli mahsulot/xizmat nomi	Qisqacha tavsifi
<b>Kapital Bank</b>	Kapitalbank. Online mobil ilovasi	Hisob raqam yuritish, to'lovlar, kartani boshqarish, o'tkazmalar.
	Smart ATMLar	Pul yechish/kiritish, plastik kartasiz xizmatlar, to'lovlar.
	Uzum ekotizimiga integratsiya	E-commerce, BNPL, raqamli xizmatlar bilan birlashtirilgan bank ekotizimi.
	Onlayn to'lovlar (P2P, QR)	Kartadan kartaga, QR orqali va boshqa raqamli to'lovlar.
<b>Hamkorbank</b>	Hamkor Mobile ilovasi	Balans ko'rish, kartani boshqarish, to'lovlar, o'tkazmalar.
	VISA virtual kartasi	Onlayn xaridlar uchun mo'ljallangan virtual bank kartasi.
	Onlayn konversiya	Mobil ilovada valyuta ayirboshlash funksiyasi.
	Fintech loyihalar (Tezbank)	Neobank shaklidagi zamonaviy raqamli bank loyihasi.
<b>Agrobank</b>	Mobil ilova (Agrobank App)	Hisob yuritish, to'lovlar, o'tkazmalar, balans nazorati.
	Sberbank bilan xalqaro pul o'tkazmalari	Rossiyadan to'g'ridan-to'g'ri Agrobank kartalariga tezkor o'tkazmalar.
	PayMe orqali xizmat ko'rsatish	Agrobank kartalarini to'lov tizimlariga ulash, oson o'tkazmalar.
	Internet banking	Masofaviy hisob yuritish va nazorat tizimi; foydalanuvchi bazasi ortib bormoqda.

O'zbekistonda bank sektori raqamli texnologiyalarni joriy etishda sezilarli o'sish ko'rsatmoqda: masofadan xizmat ko'rsatish foydalanuvchilari sonining oshishi va to'lov tizimlarining kengayishi buni ko'rsatadi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra mamlaktimizda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish ortib bormoqda. So'nggi 5 yilda umumiy foydalanuvchilar soni 13,7 milliondan 50,8 milliongacha yetib, 3,7 baravarga oshgan. Bu o'sish banklarning raqamli xizmatlarni taklif etishdagi faol strategiyasi va aholi orasida raqamli xizmatlarga bo'lgan ishonch ortganini ko'rsatadi.

Jumladan, Xalq banki, Agrobank, Sanoat-qurilish banki, Ipak Yo'li banki va Ipoteka-bank kabi banklar eng katta foydalanuvchilar bazasiga ega. Xalq banki: 2020 yildagi 2,1 mln. foydalanuvchidan 2024 yilda 6,4 milliongacha, ya'ni, uch baravardan ko'p o'sishga erishgan. Agrobank esa 2,2 milliondan 5,9 million foydalanuvchiga yetgan, demak bankda barqaror va faol o'sish kuzatilmoqda. Shuningdek, Ipak Yo'li bankida 2020 yilda 380 ming bo'lgan foydalanuvchilar soni 2024 yilda 3,3 millionga yetganligi, ya'ni 9 baravar o'sish, bankning raqamli transformatsiyaga faol moslashayotganini ko'rsatadi. Ayrim banklarda esa masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish darajasi past ko'rsatkichlarda saqlanib qolmoqda.

<sup>19</sup> Muallif ishlanmasi

**Tijorat banklarida masofadan bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni<sup>20</sup>**

№	Banklar	Yillar				
		2020	2021	2022	2023	2024
1	Milliy bank	1 230 581	2 053 208	1 519 509	1 753 740	2 423 522
2	O‘zbekiston sanoat-qurilish banki	1 645 817	2 418 832	4 751 000	6 089 469	6 304 818
3	Agrobank	2 217 049	3 089 320	4 257 528	5 623 165	5 927 887
4	Ipoteka-bank	1 387 421	1 908 623	2 313 413	3 055 397	3 794 645
5	Mikrokreditbank	727 056	762 523	908 990	1 081 210	1 216 691
6	Xalq banki	2 156 013	2 914 154	4 216 346	4 227 572	6 412 344
7	Biznesni rivojlantirish banki	298 038	377 533	410 299	279 345	335 600
8	Turonbank	210 350	261 182	330 163	530 858	528 779
9	Hamkorbank	975 668	1 291 270	1 296 933	1 716 331	2 080 902
10	Asaka bank	739 817	923 506	957 529	946 251	839 407
11	Ipak Yo‘li banki	380 007	992 919	1 445 004	2 249 752	3 341 142
12	Ziraat bank Uzbekistan	17 626	58 540	43 613	61 658	79 586
13	Trustbank	137 297	190 421	249 033	198 024	353 811
14	Aloqabank	389 868	505 815	692 473	1 608 654	1 737 789
15	KDB Bank O‘zbekiston	35 722	36 030	42 520	44 311	57 723
<b>O‘zbekistondagi tijorat banklari bo‘yicha jami foydalanuvchilar soni</b>		<b>13 769 751</b>	<b>20 669 493</b>	<b>29 209 941</b>	<b>40 663 181</b>	<b>50 891 091</b>

Jumladan, KDB Bank, Ziraat Bank, Biznesni rivojlantirish banklarida foydalanuvchilar soni bo‘yicha boshqa banklardan sezilarli orqada qolmoqda. Bu banklar xorijiy yoki yirik institutsional mijozlarga yo‘naltirilgan bo‘lishi yoki raqamli xizmatlarni joriy etish sur‘ati past bo‘lganligi bilan izohlanadi.

Shuningdek, bugungi kunda banklar faoliyatida transchegaraviy (P2P) raqamli pul o‘tkazmalari tizimi mavjud bo‘lib -bu turli mamlakatlar o‘rtasida real vaqt rejimida, raqamli texnologiyalar orqali amalga oshiriladigan to‘lovlar va mablag‘ o‘tkazmalari tizimidir. U an‘anaviy xalqaro pul o‘tkazmalari (SWIFT, Western Union, MoneyGram)ga nisbatan tezkorlik, arzonlik va shaffoflik afzalliklariga ega. P2P tizimi banklar, fintech kompaniyalar, to‘lov tizimlari va davlat regulyatorlari o‘rtasidagi raqamli hamkorlik platformasi sifatida ishlaydi. Bu tizim orqali transchegaraviy operatsiyalar blockchain, API integratsiyasi, sun‘iy intellekt, va avtomatlashtirilgan to‘lov protokollari yordamida bajariladi.

<sup>20</sup> <https://cbu.uz/uz/statistics/paysistem/2050989/> sayti ma‘lumotlari orqali maullif tomonidan tuzildi



**Transhegaraviy (P2P) raqamli pul o'tkazmalari tizimini joriy etishning kompleks chora-tadbirlari va ularning iqtisodiy-ta'sir ko'rsatkichlari<sup>21</sup>**

<b>№</b>	<b>Yo'nalish</b>	<b>Chora-tadbir mazmuni</b>	<b>Kutilayotgan natija / samarasi</b>
<b>1</b>	<b>Texnologik transformatsiya</b>	P2P tizimini xalqaro tezkor to'lov tarmoqlari (Visa Direct, RippleNet, UnionPay) bilan integratsiya qilish. Ochiq API (Open Banking) interfeyslarini joriy etish. Blockchain (DLT) texnologiyasi asosida avtomatik tranzaksiya qaydlarini yaratish	Pul o'tkazmalari bajarilish vaqti 5–7 daqiqadan 10 soniyagacha qisqaradi Operatsiyalar avtomatlashtiriladi, xatoliklar kamayadi. Real vaqtli verifikatsiya orqali xavfsizlik ta'minlanadi
<b>2</b>	<b>Iqtisodiy samaradorlik va daromad modeli</b>	2.1. "Tier-based pricing" asosida moslashuvchan komissiya siyosatini joriy etish 2.2. STP (Straight Through Processing) jarayonlarini kengaytirish 2.3. Qo'shimcha xizmatlar (cashback, mikrojamg'arma, monitoring) orqali foizsiz daromad manbalarini kengaytirish	Komissiya xarajatlari 20–25% gacha kamayadi. Operatsion xarajatlar 15–20% qisqaradi. Bankning foizsiz daromadlari 1,3–1,5 baravar oshadi
<b>3</b>	<b>Raqamli xavfsizlik va komplayens</b>	3.1. eKYC/AML tizimini biometrik autentifikatsiya asosida yangilash 3.2. AI asosida antifraud tizimi va tranzaksiya risk baholash moduli 3.3. RegTech/SupTech yechimlari orqali avtomatik nazorat va hisobot mexanizmini joriy etish	Firibgarlik xavfi kamayadi. Xalqaro prudensial standartlarga moslik oshadi. Komplayens jarayonlari avtomatlashtiriladi
<b>4</b>	<b>Mijoz tajribasi (UX/UI) va xizmat sifati</b>	4.1. Mobil super-app orqali "jo'natish–qabul–hisob yuritish" jarayonlarini yagona interfeysda birlashtirish 4.2. Chat-bot va virtual yordamchilar orqali 24/7 xizmat 4.3. Personalizatsiya tizimi (AI asosida tarif va takliflarni moslashtirish)	Tranzaksiya jarayoni 3 bosqichgacha soddalashadi. O'tkazmalar 10 soniya ichida yakunlanadi. Mijoz sodiqligi va foydalanish soni 10–15% oshadi
<b>5</b>	<b>Institutsional boshqaruv va hamkorlik</b>	5.1. "P2P Transformation Unit" tashkil etish 5.2. Xalqaro fintech hamkorliklarini (Wise, Revolut, Thunes) yo'lga qo'yish 5.3. DTeff (raqamli samaradorlik indeksi) asosida KPI tizimini joriy etish	Loyihalar samaradorligi tizimli boshqariladi. Fintech sheriklik orqali yangi bozorlarga chiqish. KPI orqali samaradorlik monitoringi va resurs reallokatsiyasi
<b>6</b>	<b>Integratsion infratuzilma va davlat qo'llab-quvvatlovi</b>	6.1. Yagona to'lov markazi va "marketplace/masterchain" infratuzilmasiga ulanish 6.2. Biometrik identifikatsiya va "raqamli profil" tizimi bilan bog'lanish 6.3. Tezkor to'lovlar tarmog'ini milliy tizim bilan uyg'unlashtirish	Banklar o'rtasida ma'lumot almashinuvi (API) tezlashadi. Xizmat xarajatlari kamayadi. Standartlashtirilgan minimal funksional imkoniyatlar yaratiladi
<b>7</b>	<b>Umumiy kutilayotgan natijalar (indikativ ko'rsatkichlar)</b>	—	Pul o'tkazmalari vaqti: ≤10 soniya. Komissiya xarajatlari: – 20–25% . Foizsiz daromadlar: +1,3–1,5 baravar. Operatsion xarajatlar: –15–20%. Mijozlar soni: +30–40% o'sish

<sup>21</sup> Muallif ishlanmasi

Transchegaraviy (P2P) raqamli pul o'tkazmalari tizimini joriy etishning mohiyati – bu xalqaro moliyaviy operatsiyalarni raqamli ekotizimga o'tkazish, tranzaksiya samaradorligini maksimal darajaga yetkazish va banklar uchun yangi raqamli daromad manbalarini shakllantirishdir. Natijada, P2P tizimi O'zbekiston bank tizimi uchun: tejamkor, tezkor va xavfsiz to'lov muhitini yaratadi, banklararo raqobatni sifat bosqichiga olib chiqadi, mijozga yo'naltirilgan raqamli xizmatlar modelini mustahkamlaydi. P2P tizimi - bu "raqamli chegarasiz to'lovlar" g'oyasini amalda ro'yobga chiqaruvchi mexanizm bo'lib, xalqaro miqyosda: SWIFT GPI, RippleNet, Visa B2B Connect, Wise, Western Union Digital kabi tizimlar bilan muvofiqlashgan holda ishlashi mumkin. O'zbekiston banklari uchun esa xalqaro pul oqimlarini milliy raqamli infratuzilma bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi.

## СБЕРБАНК БИЛАН АМАЛДАГИ P2P ЎТКАЗМАЛАР



## 2-rasm. Transchegaraviy (P2P) raqamli pul o'tkazmalari tizimi<sup>22</sup>

Yuridik shaxslar uchun yagona raqamli platforma yaratish - bu "raqamli korporativ banking" konsepsiyasi asosida: onlayn hisobvaraqlar ochish, turli banklardagi hisoblarni yagona interfeysda kuzatish, to'lovlar va o'tkazmalarni real vaqt rejimida amalga oshirish, raqamli imzo va eKYC orqali hujjat aylanishini avtomatlashtirishni ta'minlovchi tizimni ishlab chiqishdir.


<sup>22</sup> Muallif ishlanmasi

**Yuridik shaxslar uchun yagona raqamli platforma konsepsiyasi  
(Raqamli korporativ banking modeli) <sup>23</sup>**

<b>Yo‘nalish (blok)</b>	<b>Amalga oshiriladigan chora</b>	<b>Kutilayotgan natija</b>
Raqamli hisobvaraqlar ochish moduli	eKYC va eID tizimlari orqali korxonalarni onlayn identifikatsiya qilish (biometrik + EDS)	Hisobvaraqlar ochish 1–2 soatdan 5 daqiqagacha qisqaradi
API integratsiyasi	Open Banking API orqali boshqa banklardagi hisob ma’lumotlarini ulash	Bitta platformada barcha hisoblar kuzatilib boriladi
Multi-bank to‘lov shlyuzi	SWIFT GPI, Visa B2B, Paynet, HumoPay integratsiyasi	Real vaqt rejimida to‘lovlar amalga oshadi
Raqamli imzo va hujjat aylanishi	Bank–mijoz–soliq–bojxona tizimlari bilan o‘zaro bog‘lanish	Hujjat aylanish avtomatik amalga oshadi
AI asosidagi to‘lov monitoringi	Sun‘iy intellekt yordamida tranzaksiyalarni tahlil qilish	Shubhali operatsiyalar aniqlanadi va bloklanadi
Birlashtirilgan moliyaviy boshqaruv paneli (Dashboard)	Balans, to‘lovlar, soliqlar, kassa oqimlari vizual ko‘rinishda	Moliya menejeri barcha hisoblarni bitta oynada boshqaradi
To‘lovlarni rejalashtirish va avtomatlashtirish	Oldindan belgilangan to‘lovlar avtomatik bajariladi	Ishchi yuklama kamayadi, kechikishlar bartaraf etiladi
Smart-nofinans xizmatlar	Hisobotlar, soliq kalkulyatori, valyuta tahlili moduli	Platforma raqamli moliyaviy yordamchiga aylanadi
I-bosqich (0–6 oy)	Tizim arxitekturasini, API va eKYC modullarini yaratish	Platformaning texnik bazasi shakllanadi
II-bosqich (6–12 oy)	To‘lov shlyuzi, dashboard va AI-monitoringni joriy etish	Asosiy funksiyalar ishga tushadi
III-bosqich (12–18 oy)	Test, foydalanuvchi tajribasi va xavfsizlik sertifikatlashi	Tizim stabiligi va ishonchliligi ta’minlanadi
IV-bosqich (18–24 oy)	To‘liq ishga tushirish va fintech hamkorliklarini kengaytirish	Ekotizim integratsiyasi kuchayadi

Yuridik shaxslar uchun onlayn hisobvaraqlar ochish va multi-bank kuzatuv platformasini yaratish: bank xizmatlarini raqamlashtirish darajasini yangi bosqichga olib chiqadi; mijozga yo‘naltirilgan boshqaruv modelini shakllantiradi; foizsiz daromadlar bazasini kengaytiradi va O‘zbekiston bank sektorining raqamli ekotizim integratsiyasini tezlashtiradi. Natijada, ushbu platforma banklar uchun B2B segmentda raqamli liderlikni, korxonalar uchun esa moliyaviy boshqaruvda mustaqillik va tezkorlikni ta’minlaydi.

<sup>23</sup> Muallif ishlanmasi



**3-rasm. Biznes uchun masofaviy bank xizmati<sup>24</sup>**

